

TIJORAT BANKLARIDA KREDIT TAVAKKALCHILIGI VA BOSHQA BANK RISKLARINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI

Mitillayev Ibrohimjon Tursunpulatovich

Qo'qon universiteti Andijon filiali Iqtisodiyot va moliya kafedrası i.i.f.d,(PhD)

Email: ibr1980@mail.ru

ORCID: 0008-0009-6518-8710

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20955862>

Annotatsiya. Mazkur tezisda tijorat banklarida kredit tavakkalchiligi, likvidlilik tavakkalchiligi, bozor tavakkalchiligi, operatsion va komplayens tavakkalchiliklarini boshqarishning zamonaviy mexanizmlari tahlil qilingan. Kredit portfelini stress-testdan o'tkazish, ICAAP doirasida kapital yetarliligini baholash, risk-appetit ko'rsatkichlarini nazorat qilish hamda muammoli aktivlarni boshqarish jarayonlarining bank moliyaviy barqarorligini ta'minlashdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, risklarni monitoring qilish, hisobotlarni shakllantirish va tavakkalchiliklarni kamaytirish bo'yicha amaliy yondashuvlar ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Kredit tavakkalchiligi, risk-appetit, stress-test, ICAAP, likvidlilik tavakkalchiligi, bozor tavakkalchiligi, operatsion risk, komplayens tavakkalchiligi, muammoli aktivlar, bank risklarini boshqarish.


Bank tizimining barqaror faoliyati ko'p jihatdan tavakkalchiliklarni samarali boshqarish darajasiga bog'liq. Zamonaviy moliya bozorlarida iqtisodiy muhitning o'zgaruvchanligi, kredit portfellarining kengayishi va bank operatsiyalarining murakkablashuvi banklar oldiga risklarni aniqlash, baholash va nazorat qilish bo'yicha yangi talablarni qo'yimoqda. Shu sababli kredit tavakkalchiligi, likvidlilik, bozor, operatsion hamda komplayens tavakkalchiliklarini kompleks boshqarish tizimini shakllantirish tijorat banklari faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Xususan, kredit tavakkalchiligi bank faoliyatida eng katta ulushga ega risklardan biri bo'lib, qarz oluvchilarning majburiyatlarini o'z vaqtida bajarmasligi natijasida bank zarar ko'rishni mumkin. Mazkur riskni samarali boshqarish maqsadida kredit portfellarini stress-testdan o'tkazish, kapital yetarliligini ICAAP doirasida baholash, risk-appetit ko'rsatkichlarini belgilash va muammoli aktivlarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, banklar tomonidan likvidlilik tavakkalchiligi, bozor tavakkalchiligi, operatsion va komplayens tavakkalchiliklarini boshqarish tizimlarini joriy etish moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, ehtimoliy yo'qotishlarni minimallashtirish hamda bank faoliyatining uzluksizligini saqlashga xizmat qiladi. Shu bois mazkur tezisda bank risklarini boshqarishning asosiy yo'nalishlari va ularning amaliy ahamiyati tahlil qilinadi.

Kredit tavakkalchiligini stress-testdan o'tkazish tartibi ishlab chiqilishi kerak. Bu testlar bankning qarz portfelining stress sharoitlarida qanday ta'sirlanishini aniqlash imkonini beradi. Ichki jarayonlar (ICAAP) doirasida kapital holatini baholash hamda kredit tavakkalchiligiga oid hisobotlarni tayyorlash jarayoni katta ahamiyatga ega. Ushbu jarayonlar bankning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, xavflarni aniqlash va boshqarish hamda doimiy ravishda kapital talablari darajasini baholash uchun zarur hisoblanadi. Bu jarayonlar bankning kapital holatini va risklarni aniqlashda asosiy rol o'ynaydi. Ushbu tarkibiy qismlar bankning kredit

tavakkalchiligini samarali boshqarishga va moliyaviy barqarorligini ta'minlashga yordam beradi.



1-rasm. Risk appetitning miqdoriy ko'rsatkichlari

Ta'kidlash joizki, kredit tavakkalchiligi belgilangan risk-appetit chegaralariga yaqinlashganda yoki ushbu chegaralar buzilganda, risk bo'limi kamida bir ish kunida kuzatuv kengashi, bank boshqaruvi hamda mavjud bo'lsa, risklarni boshqarish qo'mitasini xabardor qilishi shart hisoblanadi. Bundan tashqari, risk bo'limi besh ish kuni ichida kuzatuv kengashiga zarur bo'lgan tuzatuvchi choralarni taklif etishi lozim. Kredit tavakkalchiligini samarali boshqarish maqsadida bank boshqaruvi ichki tartiblarni ishlab chiqishi va ularning amaldagi qonunchilik talablariga muvofiqligini doimiy ravishda nazorat qilishi zarur. Shuningdek, bank kreditlarning o'z vaqtida qaytarilishini ta'minlash hamda muammolarni dastlabki bosqichda aniqlash uchun kreditlarni yakka tartibda hamda portfel asosida monitoring qilish tizimini joriy etishi va rivojlantirishi lozim. Buning bilan birga, muammoli aktivlarni boshqarish jarayoni ham bankda samarali tashkil etilishi muhimdir.

Birinchi bosqich	➤ moliyaviy qiyinchiliklar yuzaga kelishi ehtimoli mavjud qarz oluvchilarni erta aniqlash;
-------------------------	--

Ikkinchi bosqich	➤ qarz oluvchi bilan tuzilgan shartnoma shartlarini qayta qo'rib chiqish;
Uchinchi bosqich	➤ suddan tashqari va (yoki) sud orqali qarzni undirish vositalaridan foydalangan holda qarz oluvchi bilan munosabatlarni tugatishga qaratilgan choratadbirlarni amalga oshirish;
To'rtinchi bosqich	➤ undirib olingan mol-mulkni boshqarish.

2-jadval. Muammoli aktivlarni boshqarish jarayoni

"Kredit risklarini boshqarish bo'yicha hisobotlarning shakli, davriyligi va hajmi kuzatuv kengashi yoki bank boshqaruvi tomonidan belgilanishi zarur. Kredit tavakkalchiligiga oid hisobotlar quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak, ya'ni kredit portfelining to'planish darajasi bo'lib unda umumiy hajmi va uning tarkibiy qismlari. Kredit tavakkalchiligi darajasi, unda o'rnatilgan limitlarga yaqinlashish yoki bu limitlarning buzilishi holatlari. O'zaro aloqador qarz oluvchilar, undagi risk darajasi va dinamikasi. Shu bilan birga ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar: Shakllantirilgan zaxiralar darajasi va ularning o'zgarishi. Risklarni inobatga olgan holda kredit portfeli va kredit tavakkalchiligi bo'yicha stress-test natijalari: Ushbu natijalar hisobotga kiritilishi lozim. Ushbu ma'lumotlar bankning kredit risklarini boshqarish samaradorligini baholash va zarur choralarni ko'rish uchun muhimdir.

Likvidlilik tavakkalchiligini boshqarish va monitoring qilishda bir qator muhim jihatlarga e'tibor berish zarur;

Markaziy bankning belgilagan likvidlilik koeffitsiyentlari va majburiy zaxiralash talablariga rioya qilish.

Yirik kontragentlar oldidagi majburiyatlarning konsentratsiyasini hisobga olish.

Bank tomonidan belgilangan vaqt oraliqlari va asosiy valyutalar bo'yicha aktivlar va majburiyatlar uchun kutilayotgan va shartnomaviy so'ndirilish muddatlaridagi nomutanosibliklarni ko'rib chiqish.

Stress-test senariylarida ikkilamchi bozordan qo'shimcha moliyalashtirish uchun garov sifatida taqdim etilishi mumkin bo'lgan yuqori likvidli aktivlar toifasiga kiritilmagan aktivlarning hajmi va xususiyatlarini hisobga olish.

Likvidlilik tavakkalchiligi va boshqa risklar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash va tahlil qilish.

Shuningdek, bankda bozor tavakkalchiligini aniqlash, baholash, monitoring qilish hamda kamaytirishga qaratilgan boshqaruv tizimini joriy etish zarur. Mazkur tizim bozor tavakkalchiligi bo'yicha risk-appetitni belgilash, boshqaruv siyosatini ishlab chiqish, baholash va monitoring vositalarini tatbiq etish, stress-test o'tkazish tartibi hamda hisobotlarni tayyorlash kabi asosiy komponentlarni o'z ichiga olishi lozim.

"Bozor tavakkalchiligi sezilarli darajada oshganda, xususan, tasdiqlangan risk-appetit chegaralariga yaqinlashganda yoki ularni buzishda, risk bo'linmasi bir ish kunidan kechiktirmasdan kuzatuv kengashi va bank boshqaruvin xabardor qilishi shart. Shuningdek,

besh ish kuni ichida tegishli tuzatuvchi choralarni taklif etishi zarur. Bozor tavakkalchiligining muhim darajada oshishi bankning ichki hujjatlarida aniq bayon etilishi kerak. Bankda operatsion risklarni aniqlash, baholash, monitoring qilish, nazorat qilish va kamaytirishga qaratilgan operatsion risklarni boshqarish tizimi joriy etilishi lozim. Operatsion risk quyidagi holatlar bilan bog'liq ravishda yuzaga kelishi mumkin: ichki firibgarlik, tashqi firibgarlik, xodimlarni boshqarish va mehnat muhofazasi, bank mijozlari, mahsulotlari va ish faoliyati normalari, bank faoliyatidagi nobarqarorlik, ichki tizimlardagi muammolar, shuningdek, to'lovlarni amalga oshirish va to'lov topshiriqlarini taqdim etishda yuzaga keladigan muammolar".

Bank operatsion risklarni aniqlash va baholash jarayonida quyidagi vositalardan foydalanishi lozim: operatsion risklar bo'yicha ma'lumotlarni yig'uvchi va tahlil qiluvchi ma'lumotlar bazasini tashkil etish, ichki nazorat xizmati hamda tashqi auditorlar tomonidan olib borilgan tekshiruv natijalarini o'rganish, shuningdek, asosiy xavf ko'rsatkichlari (Key Risk Indicators)dan samarali foydalanish. Ushbu ko'rsatkichlar bankning operatsion xavflarini aniq va to'g'ri baholash jarayonida muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, "bank komplayens tavakkalchiligini aniqlash, baholash, monitoring qilish, nazorat qilish va kamaytirishga qaratilgan komplayens tavakkalchiligini boshqarish tizimini joriy qilishi lozim. Ushbu tizim quyidagi jihatlarni o'z ichiga olishi kerak, ya'ni komplayens tavakkalchiligini nazorat qilish va boshqarish tartibini belgilovchi hujjatlar, komplayens tavakkalchiligi bo'yicha hisobotlar, ularning shakli, taqdim etish tartibi va davriyligi. Ushbu elementlar bankning risklarni boshqarish jarayonlarini yanada samarali va tartibli olib borishiga xizmat qiladi".

Komplayens tavakkalchiligini aniqlash va baholash jarayonida quyidagi manbalardan foydalanish zarur: bank xodimlaridan olingan ma'lumotlar, operatsion risklar bo'yicha ma'lumotlar bazasi, mijozlarning murojaatlari va shikoyatlari, ichi nazorat xizmati tomonidan olib borilgan tekshiruv natijalari, shuningdek, Markaziy bank va boshqa tegishli organlardan taqdim etilgan normativ hujjatlar va axborotlar. Agar komplayens tavakkalchiligi, jumladan qonunchilik talablarining buzilishi aniqlansa, bu holatni boshqarish uchun mas'ul bo'lgan bo'lim kuzatuv kengashi va bank boshqaruvini o'z vaqtida xabardor qilib, zarur tuzatuvchi chora-tadbirlarni taklif qilishi shart. Ushbu talablar O'zbekiston Respublikasidagi normativ hujjatlar asosida qabul qilingan va bank faoliyatida risklarni boshqarishning huquqiy asoslari sifatida qaraladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, tijorat banklarida risklarni boshqarish tizimini samarali tashkil etish moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning asosiy omillaridan biridir. Kredit tavakkalchiligini stress-test qilish, kapital yetarliligini muntazam baholash hamda risk-appetit ko'rsatkichlarini nazorat qilish bankning ehtimoliy yo'qotishlarga bardoshlilikini oshiradi. Muammoli aktivlarni boshqarishning bosqichma-bosqich mexanizmlarini joriy etish esa kredit portfeli sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, likvidlilik, bozor, operatsion va komplayens tavakkalchiliklarini o'zaro bog'liq holda boshqarish bank faoliyatining xavfsizligi va samaradorligini ta'minlaydi. Risklarni monitoring qilish, hisobotlarni shakllantirish va tegishli tuzatuvchi choralarni o'z vaqtida amalga oshirish bankning uzoq muddatli rivojlanishi hamda raqobatbardoshligini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli risklarni boshqarish tizimini

xalqaro standartlar va milliy normativ talablar asosida takomillashtirib borish banklar oldida turgan ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

